

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov	
Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari	235
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari	240
B.X.Tolipov	
Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari	245
F.A.Mirzayeva	
Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida "Maktubot" asarining ahamiyati	249
I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	254
I.A.Asatulloev	
Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari	260
O.M.Karimov	
Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar	266
Q.Sulaymonov	
Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari	269
A.A.So'fiev	
Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati	273
M.R.Sodiqova	
O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy ahamiyati (2000-2021-yillar).....	278
S.A.Soxibov	
Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili	282
Q.A.Pulatov	
Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil	286
D.E.Normatova	
Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar.....	290
O.M.O'sarkulov	
O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari	294
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	299
I.A.Rakhimov	
Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen when evaluating the performance of the "Mahalla seven"	304
S.P.Tojiboyev	
Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari	308

TARIX

F.M.Rahmonberdiyev	
XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi	313
F.M.Rahmonberdiyev	
Tarixshunoslikda akademik Bo'ribov Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar	321
E.A.Botirov	
Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigoj	328
O.A.Radjabov	
Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi	332
S.B.Mamataliyeva	
Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi	336
S.I.Yoqubjonov	
O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni	342
D.A.Qosimov	
Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy	



UO'K: 101.1

YANGI O'ZBEKISTIONDA YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINI SOG'LOM RAQOBAT MADANIYATI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ****MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH ECONOMIC ACTIVITY IN THE NEW UZBEKISTAN BASED ON A CULTURE OF HEALTHY COMPETITION****Tolipov Baxtiyor Xamitovich** 

Farg'ona davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi, f.f.n.

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning deterministik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретические и методологические основы развития экономической активности молодежи в Новом Узбекистане, детерминированные основы развития экономической активности молодежи в Новом Узбекистане на основе культуры здоровой конкуренции, перспективы развития экономической деятельности изучается молодежь Нового Узбекистана на основе культуры здоровой конкуренции. Также анализируются инновационные основы формирования культуры здоровой экономической конкуренции среди молодежи.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan, the deterministic foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition, and the prospects for the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition. Innovative foundations for developing a culture of healthy economic competition among young people are also analyzed.

Kalit so'zlar: yoshlar iqtisodiy faolligi, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, deterministik asos, sog'lom raqobat madaniyati.

Ключевые слова: экономическая активность молодежи, социальные закономерности, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системно-функциональный, детерминистический базис, культура здоровой конкуренции.

Key words: youth economic activity, social laws, tradition and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systematic and functional, deterministic basis, culture of healthy competition.

KIRISH

Jamiyatda iqtisodiy farovonlikni ta'minlash inson omilini yuksaltirish, mehnat mazmundorligini oshirish, faoliyat subyektlari ma'naviyatini boyitish kishilarimizning iqtisodiy madaniyati darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va yuksaltirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yoshlarning iqtisodiy faolligi F.Primov, Y.Ernazarova, Sh.Quvondiqov, J.Mavlyanov, Sh.Azamatovlarning ilmiy kuzatishlarida aks etgan. MDH mamlakatlarida G.P.Voshanova, G.S.Godzina, L.G.Golovach, V.YE.Savchenko, D.Saxal, D.I.Kokurin, O.A.Latuxa, A.D.Sheremet, Y.V.Sherbinina kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu tadqiqotchilar diqqatini

posttotalitar tuzumdan keyingi ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, tizimli transformatsiya jarayonlari, insonning iqtisodiy huquq va erkinliklarini milliy zaminlarda ro'yobga chiqarish, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyaning ilmiy texnik va jamiyat taraqqiyotiga oid masalalar o'rganilgan. Ulardagi ilmiy nazariy va ijtimoiy falsafiy xulosalar, tahlil usullari, sotsiometrik kuzatuvlar bizning izlanishlarimiz uchun ham muhim. Xorijlik olimlardan E.Porter, E.Maykl, K.Y.Totyev, A.Y.Yudanov, G.L.Azoyev, A.P.Gradov, M.V.Konotopov, R.A.Fatxutdinov, A.Y.Kibanov hamraqobat jarayonini sog'lomlashtirishning ayrim masalalarini o'rganganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insonlarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sohasidagi tendensiyalarning mohiyatini teran tushunish uchun ularni jamiyat ma'naviy hayoti, madaniyati bilan bog'lab o'rganish muhim ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra, jamiyat va shaxs iqtisodiy madaniyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganishning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, milliy mustaqillik tufayli respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish jarayoni nafaqat sof iqtisodiy, shu bilan birga, yuksak ma'naviy omillarga ham tayanadi. Bunday sharoitda ma'naviy-madaniy omillar va ijtimoiy meyorlar avvalo rejalashtirish, ta'minot, bozor, moliya kabi ijtimoiy tuzilmalar faoliyatida, kishilarning jamiyatda tutadigan mavqei doirasida o'z aksini topmoqda.

Ikkinchidan, yaqin o'tmishdan meros qolgan boqimandalik, loqaydlik illatlarini bartaraf etmay turib, fuqarolar, xususan, yoshlar ongida chinakam tadbirkorlik va ishbilarmonlik tuyg'usini, bozor psixologiyasini, bir so'z bilan aytganda, yuksak iqtisodiy tafakkurni shakllantirmay turib islohotlarni amalga oshirishda samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. Bu jarayonda moddiy asosi mulkchilikning turli shakllariga suyanadigan, ma'naviy zamini chinakam insoniy manfaat va fazilatlarini o'zida gavdalan-tiradigan iqtisodiy ong va madaniyatni tarkib toptirish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida har bir insonning ma'naviy barkamolligi ayni ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini ham o'zida ifodalamoqda. Ma'naviyatning tarkibiy qismi hisoblangan iqtisodiy madaniyatni sog'lomlashtirish, uni mazmunan yuksak axloqiy meyorlar asosida boyitish nafaqat jamiyat, shu bilan birga, har bir fuqaro uchun ham muhim ijtimoiy qadriyatga aylanib bormoqda.

To'rtinchidan, bilim va tafakkurga asoslangan milliy taraqqiyoti-mizning kuchi barkamol shaxsning iqtisodiy jihatdan o'z faoliyatini erkin ro'yobga chiqarishi, islohotlarning ishonchli va mustahkam tayanchiga aylanishini taqozo qiladi. Binobarin, ijtimoiy munosabatlar tizimida iqtisodiy madaniyat taraqqiyotning kuchli ma'naviy omili vazifasini o'tamoqda.

Beshinchidan, ma'naviyat va iqtisodning bir-birini uyg'un qo'llab-quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanishi respublikamiz taraqqiyotining strategik maqsadini ifodalaydi, bozor munosabatlariga o'tishning "o'zbekona" yo'li shaxsning ayni iqtisodiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini har qachongidan ko'ra dolzarb qilib qo'ymoqda. Shuning uchun iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy barqarorlik, madaniylashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari va qadriyatlari jamiyatimizda yuksak iqtisodiy madaniyat negizida chin hayotiylik kasb etmoqda. Shuni aytish kerakki, yangi iqtisodiy qarashlar kishilarimiz ong-tushunchasidan o'rin olgan boqimandalik, loqaydlik, dangasalik, o'zibo'larchilik, tashabbussizlik kabi illatlarga qarshi uzluksiz kurashda tarkib topadi. Albatta, iqtisodiy qarashlarni qayta o'zgartirish, ularni bozor munosabatlari tabiatiga muvofiqlashtirish, odatdagi andozalardan voz kechish xiyla murakkab bo'lib, uni bartaraf etishda bir butun iqtisodiy, tashkiliy, mafkuraviy tadbirlarni amalga oshirish taqozo qilinadi.

Iqtisodiy qarashlarni tarkib toptirish sohasida eng muhim omillardan biri iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishdir. Bu o'rinda iqtisodiy, ishlab chiqarishlik hamda ilmiy-texnikaviy savodxonlik va targ'ibot muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy bilimlar umuman bozor iqtisodiyoti asoslarini o'rganishda, shu asosda iqtisodiy madaniyat meyorlariga mos sermazmun hayot kechirishda, sog'lom turmush tarzini tashkil etishda muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy fikrlarning bosqichma-bosqich shakllanish va rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon iqtisodiy voqelik to'g'risidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar, g'oyalarni o'zida gavdalanitiradi. Umumlashgan iqtisodiy-falsafiy fikrlar yuksak iqtisodiy madaniyatning asosiy zaminidir. Bunda sotsial-iqtisodiy vazifalarni hal qilishda bir tomonlama, g'arazli maqsadlarga o'rin qolmaydi.

Iqtisodiy tafakkur har xil sharoit, turlicha ta'sirlar doirasida shakllanadi. Masalan, maxsus

SIYOSAT

iqtisodiy bilimlarni egallash hayotiy tajri-bani, o'zaro muloqotni taqozo qiladi. Yoki kundalik turmush tajribalari asosida shakllangan iqtisodiy tafakkur imkon boricha nazariy bilimlar bilan to'ldirilishga ehtiyoj sezadi. Demak, iqtisodiy tafakkurning rivoj-lanishi uzluksiz dialektik jarayon bo'lib, ham nazariy, ham amaliy jihat-dan yangilanib, o'zgarib, yuksalib boradi.

Iqtisodiy tafakkurga ega bo'lmay turib, shaxsning iqtisodiy madaniyati haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Boshqacha ayt-ganda, iqtisodiy tafakkur iqtisodiy madaniyatning borliqning tegishli sohasini ilmiy idrok etish va bilishga asoslangan intellektual negizidir. Shunday ekan, bu ikki ma'naviy hodisa o'zaro bir-birini taqozo etadi, iqtisodiy madaniyat tafakkurning amaliy faoliyatda yaxlit namoyon etadi, iqtisodiy tafakkur esa uni nazariy tomondan mustahkamlaydi. Iqtisodiy tafakkur, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ham nazariy, ham amaliy asosga ega bo'lganligi uchun ham biz iqtisodiy madaniyatdan uzoqlashib ketmasligimiz, "iqtisodiy tafakkur madaniyati" qobiliyatiga ega bo'lishimiz, uni rivojlantirishimiz lozim.

Tafakkur madaniyati, agar u ma'naviyat asosida rivojlanmasa, iqtisodiy madaniyatning etakchi zamini bo'la olmaydi. Shuning uchun biz iqtisodiy tafakkur haqida gapirganimizda ayni iqtisodiy tafakkur madaniyatini nazarda tutamiz.

Iqtisodiy tafakkur madaniyati umuman tafakkurga ikki tomondan sifat belgisini beradi. Bir tomondan, bu tafakkur qandaydir mavhum emas, balki real iqtisodiy voqelik, iqtisodiy hayot haqida chuqur bilim, fikr, g'oyalar majmuidir. Ikkinchi tomondan, bu – tafakkurning shunchaki iqtisodiy belgisi, xususiyati emas, shu bilan birga, tafakkurning madaniy tomoni hamdir. Obrazli qilib aytganda, tafakkur, bir tomondan iqtisodni, ikkinchi tomondan ma'naviyatni uyg'unlashtirib, chuqur bilim, g'oya, fikrlar bilan boyitib, so'ng iqtisod bilan madaniyatni omuxta etadi. Bu dialektik aloqadorlikdan kelib chiqib, iqtisodiy madaniyat tafakkursiz jiddiy harakatga kelolmaydi, yuksak rivojlanib ketolmaydi, deyish mumkin.

Modomiki, tafakkur, bir tomondan, tajriba, amaliyot, ikkinchi tomondan, maxsus bilimlarni egallash orqali shakllanadi, degan fikr ilgari surilar ekan, bu narsa iqtisodiy madaniyatni jarayon sifatida qarab chiqishni taqozo etadi.

Tafakkur ko'r-ko'rona duch kelgan tajribani emas, balki iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida shakllanadi, yoki iqtisodiy tafakkur maxsus bilimlarni egallash asosida tarkib topadi, deyilganda ham xuddi shu narsa ko'zda tutiladi. Iqtisodiy madaniyatni rivojlantiradigan faoliyatda iqtisodiy tafakkur iqtisodiy-madaniy bilimlarni muntazam egallash asosida mazmunan chuqurlashib boradi.

XULOSA

Iqtisodiy tafakkur madaniyatini shakllantirishda shaxsning bu sohadagi qobiliyati, bilimi, tajribasi muhim omil hisoblanadi. "Bilimlar faqat tajribadan tug'iladi, deb ta'kidlashadi Frensis Bekondan tortib Lokk va Xryumlargacha bo'lgan barcha ingliz mutafakkirlari, – deb yozadi Kim U Jung. – Boshqacha so'z bilan aytganda, yangi tug'ilgan go'dak bir varaqq toza qog'ozga o'xshaydi. Uning ongi ham, fikri ham yo'q. Faqat hayot tajriba-sigina yillar davomida bu varaqqqa o'z rasmlarini chizadi. Tajriba chizgan rasmlar inson hayotining o'zidir... Yoshlik yillarida ko'proq tajriba to'plashga intiling. Shundagina chuqur fikr yuritasan, dunyoqarashing kengayadi, hayotning barcha sirlarini egallaysan. Shaxsiy tajribasiz hech narsani bilolmaysan. Boshqalarning tajribasiga umid qilmay, faqat o'z tajribangga suyanibgina, biror narsa haqida ishonch bilan fikr yuritish mumkin. Biz faqat o'z tajribamizda sinagan narsalarnigina chinakamiga bilishimiz mumkin. Tajriba-bu ajoyib va takrorlanmas hayot darsligidir". Iqtisodiyot fani, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy munosabatlar har bir davrda davlatchilik tuzumini, iqtisodiy rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini belgilab berar ekan, odamlarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhim masala bo'lib qolaveradi. Chunki ko'p hollarda odamlarning ong-tushunchasi, dunyoqarashi, tafakkuri jamiyatning umumiy taraqqiyotidan orqada qoladi, natijada turli-tuman ziddiyatlar kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ким У Жунг. Бизнеснинг буюк олами. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. -88 б.
2. Никитин Е.Н., Харламенкова Н.Е. Феномен человеческого самоутверждения. Санкт-Петербург: Алтейя, 2000. – С. 7, 217.
3. Норкулов С. Д. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари. Монография. – Т.: Navro'z, 2015.-93-бет.
4. Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. – Т.: Университет, 2009. 118-бет.

5. Примов Ф. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини назорат қилишни оптималлаштириш истиқболлари. //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. №3(75) 2016. 43-бет.
6. Собирова З. Жамият янгиланиши ва бадий-эстетик омиллар. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.-108-бет.